



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th August, 2025

CHERRI POMIDORNI ISTIQBOLLI NAVINI MAQBUL EKISH SXEMASI VA O'SIMLIK QALINLIGINI HOSILDORLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRINI TAXLIL QILISH

Egamberdiyev Sobir Yo'ldoshevich
Toshkent davlat agrar universiteti PhD)

Annatotsiya:

Ushbu maqolada bir tupdan olingan hosil miqdori aniqlanganda, o'simlik kalinligini kamayishi natijasida har ikki nav hamda ikki ekish sxemasida ham oziqlanish maydonning ortishi kuzatilgan bshlib, tajribada bir xil oziqlanish maydon (0,21 va 0,28 m²) va bir xil o'simlik qalinligiga (47619 va 35714 dona) ega bo'lgan, turli xil ekish usullarida (90+50 va 80+60 sm) bir tup o'simlikdan olingan hosil miqdori bo'yicha farqlandi. Oziqlanish maydon ortib borishi bilan bir tupdagi mevaning vazni va hosili ham ortib borganligi va bir tupdan olingan xosil 5,34-5,96 kg ni tashkil etganligi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlari: cherri, pomidor, issiqxona, fotosintez, harorat, namlik, nav, navmunalar tanlash, ekish sxemasi.

Kirish

Respublikamizda qishloq xo'jalik ekinlarini suv bilan ta'minlash muammosi yuzaga kelmoqda. Suv tanqisligini oldini olish va resurtejamkor texnologiyalarni qo'llash va suvdan oqilona foydalanish dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu sababli keyingi paytda tuproq namligini saqlovchi, suvni tejovchi va cho'l xududlarda ham o'simliklarni o'sib rivojlanish imkonini beruvchi moddalar, usullar va innovatsion texnologiyalarni qo'llashni talab etmoqda. Shu ma'noda biz tadqiqotlarimizda qo'llagan gidrogel moddasi ham shular qatoriga kiradi.

Tadqiqotning maqsadi Pomidorni issiqxonalarda cherri tipidagi nav namunalarini yetishtirish texnologik elementlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th August, 2025

cherri pomidorni issiqxonalarda nav namunalari qimmatli xo'jalik belgilari (tezpisharligi, kasalliklarga chidamliligi, hosildorligi, meva sifati) bo'yicha baholash va istiqbolli navlarni ajratish;

Tadqiqot obekti: Tadqiqotning obekti sifatida cherri pomidorni 10 ta nav namunalari o'simligi va mevalari, 4 ta o'sishni boshqaruvchi va 1 ta suv tejovchi moddalar va 4 ta ekish usullari xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari: Cherri pomidorni istiqbolli Blek cherri navini maqbul ekish sxemasi va o'simlik qalinligini hosildorlik ko'rsatkichlariga ta'siri taxlil qilindi. Bunda cherri pomidorni issiqxonada har xil ekish sxemalarini o'rganish natijasida o'simliklardagi shingillar soni, shingildagi mevalar soni va o'simlikni kasalliklarga chidamliligi hamda hosildorlik ko'rsatkichlari baholandi. Maqbul oziqlanish maydon va ekish sxema pomidor o'simligini mahsuldorligi oshirishda muxim rol o'ynaydi.

Tadqiqotda avval o'simliklardagi shingillar soni, shingildagi mevalar soni va o'simlikni kasalliklarga chidamliligi aniqlandi. Kasalliklardan fitofthoroz va fuzarioz so'lish kasalligi bo'yicha taxlili olib borildi.

Tajribada maqbul ekish sxemasini aniqlashda o'simliklardagi shingillar va shingildagi mevalar soni asosiy elementlardan biri hisoblanadi. Albatta shingillarni sekin shakllanishi ekish sxemasi, yorug'lik va xaroratning yetishmovchiligi hamda changlanishdagi kamchiliklardan kelib chiqadi.

Tajribada cherri pomidorni turli xil ekish sxemalarini o'rganishda 62 kungi kuzatuvda har bir tupdagi shingillar soni 14-16 donani, 80-chi kungi kuzatuvda 16-21 donani, 117-chi kungi kuzatuvda esa 31-37 donani tashkil etganligi ma'lum bo'ldi. Nisbatan yuqori ko'rsatkich $\frac{(80+60)}{2} \times 30$ sm li ekish sxemasida nazoratga

nisbatan xar bir tupda o'rtacha 2 donadan ko'p ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot kuzatuvlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, turli xil oziqlanish maydonga ega bo'lgan o'simliklarda yorug'lik va xaroratni hamda gullarni changlanish xususiyatlariga ko'ra, shingillarni paydo bo'lishi kuzatildi. Bu albatta o'simliklarda mevalarning shakllanish dinamikasiga ham ta'sir etadi. Cherri pomidorni turli xil



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th August, 2025

ekish sxemalarida yetishtirishda mikroiklim va oziq moddalar ta'sirida mevalar shakllanishi o'zgarishi mumkin. Shuning uchun issiqxonalarda mikroiklimni sozlash va oziqli eritmalarni meyorda berishda maqbul ekish sxemasini tanlash hosildorlikka ijobiy ta'siri bo'ladi.

Tajribada shingildagi mevalarning soni avvalgi 62-chi kungi kuzatuvlarda kamroq va 117 kundagi kuzatuvlarda nisbatan ko'payganini ko'rishimiz mumkin. Bunda nazoratga nisbatan 3 dona ko'p bo'lgan $\frac{(80+60)}{2} \times 30$ sm li ekish sxemasi aniqlandi.

Qolgan sxemalari nazoratdan kam meva xosil qildi. Shingildagi mevalar soni hisoblanganda o'rtacha sxemalari bo'yicha 18-22 donani tashkil etgan. Nisbatan yuqori ko'rsatkich $\frac{(80+60)}{2} \times 30$ sm li ekish sxemasida aniqlandi.

Cherri pomidorni turli xil ekish sxemalarida yetishtirishda fuzarioz so'lish va fitofторoz kasalligi bilan kasallanishi darajasi kuzatildi. Bunda fuzarioz so'lish kasalligi bilan faqat bitta $\frac{(90+50)}{2} \times 30$ sm li ekish sxemasi 5 foiz kasallangan.

Qolgan ekish sxemalarida ushbu kasallik uchramagan. Fitofторoz kasalligi ham faqat bitta nazorat variantda 1,5 foizga kasallangan. Bu albatta o'simlik qalinligi bilan bog'liq bo'lib, qatordagi o'simliklarning orasi qisqa bo'lganda kasallik alomatlarini kuzatish mumkin.


Tadqiqot natijalariga ko'ra, cherri pomidorni Blek cherri navini mahsuldorligi bilan bog'liq bo'lgan hosildorlik ko'rsatkichlari taxlil qilindi. Bunda har xil ekish sxemalarda ekib o'rganilgan variantlar delyankalaridan yig'ib olingan hosil aloxida-aloxida torozida tortilib, tovar va notovar hosil miqdor ko'rsatkichlari aniqlandi.

International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th August, 2025



5.25-rasm. Turli xil ekish sxemalarida ekilgan cherri pomidorni hosildorlik ko'rsatkichlari (2020-2022 yy.).

Tajribada lentalar oralig'ining (90 va 80 sm) farqlanishida o'simliklarning oziqlanish maydonini ortishi, o'simlik kalinligini kamayishi umumiy hosildan tovarbop hosil ulushining ko'payishiga olib keldi. Shuning uchun cherri pomidor yetishtirishda lentalar oralig'i (90 sm) keng bo'lganda tovarbop hosil ulushi yuqori bo'lishi kuzatildi.

Har ikki ekish usulida ham oziqlanish maydonini ortishi tovarbop hosil mevalarini o'rtacha vaznini ortishiga olib kelgan. Bir xil o'simlik qalinligiga ega bo'lgan, ammo lentalar oralig'i keng (90 sm) bo'lganda yirik mevalar shakllanishi ko'p bo'ldi.

Bunda har bir terimda har bir variantlar bo'yicha hosil torozida tortilib, tovarbop va notovar hosil ajratildi va hisoblash ishlari olib borildi. Bunda umumiy hosil, tovarbop hosil va tovarbop hosilning ulushi, shu bilan birga umumiy hosildan notovar ya'ni mevalarni deformatsiyalangan, qiyshiq, qo'shaloq, kuchli qovurg'alangan, chirigan va zararlanganlari ajratildi. Tajribada pomidorni bir kvadrat metrda o'simlikdan olingan hosildorlik ko'rsatkichlari ham hisoblab chiqildi.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th August, 2025

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Авдеев У.И. Селекция томатов. – Кишинев: ШТИИНСА, 1982. – 284 с.
2. Алпатов А.В. Помидор. М., “Московский рабочий”, - 1981. – 302 с.
3. Арамов М.Х. Эколого-генетические основы селекции томата на устойчивость к патогенным и адаптивную способность. Автореф. дисс....доктора с-х. наук. СПб., 1994.-48 с.
4. Асатова С.С. Влияние регулятора роста тетрацикла на рост, развитие и урожайность томата и огурца.// Автореф.канд.дисс. Ташкент.ТашГАУ. 1995. С.6-7.